

Abulholid Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Rushd (mana shu uzun ism oxir-oqibat Averroes bo'lgunga qadar Benraist va Avenris, hatto Aben-Rassad va Filius Rosadis kabi evrilishlarni boshdan kechirgan ko'yi asrlar davomida takrorlanib keldi) "Tahafut-ul-Tahafut" ("Tugatilishning Tugatilishi") tazkirasining o'n birinchi bobinifors zohidi, "Tahafut-ul-Falasifa" ("Faylasuflar raddiyasi") muallifi G'azzoliyning fikriga qarama-qarshi o'laroq, ayrim jonzotlarga emas, balki turlarga taalluqli Koinot umumiy qonunlarigina Tangriga ma'lum ekanligi ta'kidlangan o'n birinchi bobini yozish bilan mushg'ul edi. U o'ngdan so'lga tomon ishonch bilan xotirjam qalam tebratar, ikki turli fikrdan mantiqiy xulosalar chiqargan ko'yi uzun jummalarni bir-biroviga bog'lar ekan, atrofini o'rab olgan salqin va charog'on go'shasining osoyishtaligini his qilib turardi. Mudroq qo'ynidagi oshiq kabutarlar bir-birovining pinjiga kirgan, naridagi hovlidan favvora jildirashi eshitilib turar va ajdodlari Arabiston sahrolari farzandlari bo'lgan Averroes ayni shu obi hayotning borligiga jon-tani bilan shukronalar keltirardi. Quyiroqda bog'lar va uerta bor edi; yana quyiroqdajonsarak Gvadalakvivir, undan naridaBog'dod va yo al-Qohira kabi charog'on hamda murakkab va nafis musiqa asbobi misol suyuqli Kordova shahri, uning tevarak atrofida esa (Averroes buni ham ko'ngil ko'zi bilan ko'rib turardi) garchi g'aroyibotlari bisyor bo'lmasa-da, undagi har bir tosh qat'iy va manguga muqim bo'lgan Ispaniya yerlari yastanib yotar edi.

So'zlar birin-ketin tizilib borar, dalillar, inkor etib bo'lmas dalillar bir-biriga bog'lanayotgan, ammo Averroesning mas'ud kayfiyatiga kichik bir tashvish ko'lanka solgan edi. Bu tashvishning boisi, umuman olganda tasodifan yuzaga kelgan "Tahafut" emas, balki Averroesning behuda hayot kechirmaganligini bashariyat qarshisida isbotlashi lozim bo'lgan ulug'vor asar bilan bog'liq masala edi. Arastu asariga yozilgan sharh edi. Turli falsafalar manbai bo'lgan bu yunoniy neki bo'lsa, barchasini o'rgatish uchun odamlarga nozil qilingan edi. Ulamolar Qur'onni sharhlaganlari kabi Averroes ham Arastu kitoblarini talqin etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Oralariga o'n to'rt asrlik vaqt devor solgan odamning mushohadalariga o'zini bag'ishlagan bu arab tabibining jasorati singari ajoyib va ulug'vor misollarga tarix har kuni duch kelavermaydi. Suryoniy va yunon tillaridan bexabar Averroes tarjimaning tarjimasi ustida ish olib borayotganini mana shu yumushning mushkulotlari sirasiga qo'shish kerak bo'ladi. Bir kun avval "Poetika"ning ilk sahifalarida duch kelingan ikki tushuniksiz kalom ularning beliga tepdi. Bu "tragediya" va "komediya" degan so'zlar edi. Averroes bu so'zlarni ko'p yillar avval "Ritorika"ning uchinchi kitobida uchratgan, islom dunyosidagi biror zot ularni tushuntirib bera olmasdi. U Iskandar Afrosidiy asarini behuda varaqlar, Husayn ibn Ishoq bilan Abu Bashir Matta talqinlarini qiyoslash ham naf bermadi. Ularni tashlab o'tish mumkin emasdi "Poetika" matni bu sirli ikki so'z bilan to'la edi. Averroes yozishdan to'xtadi. Biz ko'pincha yonginamizda turgan narsani qidirib sarson bo'lamiz, deya "Tahafut" qo'lyozmasini yashirib qo'ydi va so'qir Ibn Said qalamiga mansub "Mohkam"ning forsiy husnixatda ko'chirilgan jildlari terilgan tokcha yoniga bordi. Uning bu ishi kulgili bo'lsa-da, bekorchilikdan bu kitoblarni yana qayta varaqlab, lazzat olmoqchi edi. Bu mashg'ulotdan Averroesni allaqanday qiroat ovozi chalg'itdi. U panjarali ayvondan ko'z tashladipastki hovlida yalang'och bolalar o'yin bilan ovora edi. Ulardan biri boshqasining yelkasiga chiqib olganча muazzinga taqlid qilar, ko'zlarini chirt yumib olib "Ollohdan o'zga iloh yo'qdir" deya qiroat qilar edi. Uni ko'tarib olgan bola minoraga o'xshab tek qotgan, tiz cho'kkan uchinchi birovi tuproqqa qorishib, namozxonlar jamoasini tasvirlar edi. Tez orada o'yin buzildibolalarning har biri muazzin bo'lishni istar va hech biri minora va yo namozxon bo'lishni hohlamasdi. Ular "qo'pol" lahjada, ya'ni yarim oroldagi musulmon muhojirlar suhbatlarida yuzaga chiqib qoladigan ispan tilida bahslashayotganlari Averroes qulog'iga chalinardi. U Halilning "Kitah ul ayn" asarini qo'lga oldi va Tanjerda amir Yoqub al Mansur o'z qo'li bilan hadya etgan mana shu go'zal asarning boshqa biror nusxasi butun Kordovada, ehtimol, butun Al-Andalusda ham topilmasligini o'ylab g'ururlandi. Tanjer nomi Marokashdan qaytib kelgan sayyoh Abulqosim Al Ashriy bugun kechqurun Qur'on bilimdoni deb e'tirof etilgan Farrojniqida hozir bo'lishini yodiga soldi. Abulqosim Chin mamlakati sarhadlariga qadar yetib borgani haqida so'zlab bergan, uning dushmanlari esa nafratdan vujudga keluvchi o'ziga xos mantiq bilan u Xitoy zaminiga oyoq qo'ymagani va shuningdek, garchi qadam ranjida qilgan bo'lsa-da, o'sha mamlakat ehromlarida Ollohga shak keltirgani haqida ont ichib so'zlab yurishguvchi edi. Suhbat bir necha soatga cho'zilishi tayin edi va shu bois Averroes shosha-pisha yana "Tahafut"ga tutindi. U shom qorong'usiga qadar mutolaa bilan mashg'ul bo'ldi.

Farrojniy uyidagi suhbat hukmdor fazilatlaridan uning amir inisi fazilatlariga ko'chib o'tdi, keyin esa, bog'dagi sayr chog'i, atirgullar to'g'risida so'z ochildi. Abulqosim bu gullarga zig'ircha e'tibor qilmay, Andalus chorbog'larini bezab turgan atirgullardan go'zalrog'i yo'qdir, deya ont ichdi. Farroj hijolatpazlikka yo'l bermadi mavlono Ibn Qutayba Hindiston bog'larida mangu gullab turguvchi hamda alvon yaproqlari "Ollohdan o'zga iloh yo'qdir va Muhammad uning payg'ambaridir" degan bitikni barpo etuvchi ajoyib atirgul turini tasvir qilganligi to'g'risida so'z tashladi. Extimol, muhtaram Abulqosim shunday gulni ko'rgandir, deb qo'shib ham qo'ydi. Abulqosim sarosimada qoldi. Agar "ko'rganman" deb javob qilgudek bo'lsa, uni vijdonsiz va surbet aldoqchi, deb o'ylashlari tayin. Bordi-yu "ko'rmadim" desa, shakkok deb o'ylashadi. U barcha sinoatlarning kaliti Ollohning qo'lidadir va yer yuzida biror so'lg'in va yo barq urib turgan narsa yo'qdirki, Uning kitobida qayd etilmagan bo'lsin, qabilida mujmal javob qilishni afzal bildi. Dastlabki suralarga taalluqli bu so'zlar tavoze' bilan qarshi olindi. Topqirligidan mag'rurlanib ketgan Abulqosim Xudoning hilqatlari mukammal va anglab bo'lmasdir, deya ilova qildi va shunda hali dunyoga kelmagan Yunning bo'lajak mulohazalarini oldindan payqagan Averroes suhbatga qo'shildi:

Zamin e'tiqod timsollari naqsh qilingan atirgulni dunyoga keltirgan, deya o'ylashdan ko'ra mavlono Qutayba va yo hattotlar matn ko'chirishda xatoga yo'l qo'yg'alar, deyish men uchun osonroq.

Haqqi rost. Ulug' va haqqoniy so'zlar,-dedi Abulqosim.

Bir sayyoh,-deya xotiralaridan so'z ochdi shoir Abdulmalik,-mevalari yam-yashil qushlardan iborat bo'lgan daraxt haqida hikoya qiladi. Ilohiy harflar naqshlangan atirguldand ko'ra mana shunga ishonish men uchun osonroq.

Ehtimol,-dedi Averroes,-mo'v' h'jizaning boisi qushlarning rangida bo'lsa kerak. Qolaversa, meva hamda qushlar tabiat dunyosiga tegishli, bitik esa san'atdir. Atirgullardan harflarga o'tishdan ko'ra yaproqlardan qushlar tomon o'tish mantiqqa yaqinroq.

Mehmonlarning biri yozuv san'atdir, degan fikrni darg'azab holda inkor etdi. Illo Qur'onning asliyati "Kitob Volidasi"olam yaralishidan avval ham mavjud edi va u falakda saqlanadi. Yana birov basralik Johizni tilga olib o'tdi. Unga ko'ra, Qur'on inson va yo jondor shaklini olishga qodir mohiyatdir, o'z navbatida mana shu fikr Qur'on ikkita deguvchilar qarashlariga go'yoki mos tushganday tuyiladi. Farroj izchil nuqtai nazarni bayon qilishga tushdi. Qur'on, dedi u, huddi ilohiy marhamat singari Xudoning sifatlaridan biridir; Qur'onni kitob qilib bitadilar, uni til bilan talaffuz etadilar, uni qalbga muhrlaydilar nutq va imlo belgilari inson aqli mahsulidir. Qur'on esa mutlaq va mangudir. "Respublika"ga tafsir bitgan Averroes Kitob Volidasi uning (Qur'onning) o'ziga xos aflotuniy g'oyasidir, degan fikrni o'rta tashlashi mumkin edi, ammo ilohiyot Abulqosim aqlidan ancha naridagi ilm ekaniga e'tibor qildi.

Buni payqagan boshqa mehmonlar ham Abulqosimdan biror ajoyibot haqida so'zlab berishni iltimos qila ketishdi. Hozirdagi kabi u zamonlarda ham dunyo bemehr edi: chinakam jasur odamlar va shuningdek, har narsaga tayyor razillargina yer yuzi bo'ylab

sayohat qila olar edilar. Abulqosimning botiniy qo'rqqoligi esa xotirasida aksini topgan edi. U nima haqida so'zlab bera olardi? Ustiga ustak, ular ajoyibotlar haqida so'rashayotir, axir benazir narsa-hodisalarni so'z orqali ifodalab bo'lar ekanmi? Bir xil so'zlar vositasida tasvirlash mumkin bo'lsa-da, Bengaliya osmonidagi oy Yaman hilolidan o'zgacharoq. Abulqosim bir oz vaqt taraddudda qolgach:

Turli o'lka va shaharlarni ziyorat qiluvchi odam, deya ehtiyotlik bilan so'z boshladi. xotirada saqlashga loyiq ko'p narsalarning guvohi bo'ladi. Mana, men faqat bir marotaba turklar sultoniga so'zlab bergan voqea. Bu voqea Chin Kalonda (Kantonda), Hayot Irmog'ining dengizga quyilish joyida ro'y bergan edi.

Farroj bu shahar ya'juj-ma'jujlardan saqlanish uchun Iskandar Zulqarnayn barpo etgan devordan qay masofa olisda ekani bilan qiziqdi.

Devor bilan shaharning o'rtasi sahrodir,-dedi Abulqosim kalondimog'lik bilan.-Devor minoralari ufqda ko'ringunga qadar, karvon qirq kun yo'l bosishi va aytishlaricha, uning qarshisida paydo bo'lish uchun yana shuncha yo'l yurishi kerak. Chin Kalonda men o'sha devorni ko'rgan yoki devorni ko'rgan odamni ko'rgan birorta odamni ko'rmadim.

Averroes bir zumga bahaybat cheksizlik, kimsasiz borliq qarshisidagi qo'rquvni tuydi. U daraxtlari bir xil tartib bilan ko'kka bo'y cho'zgan boqqa nazar tashladi. O'zini keksayib qolgan, befoyda va ko'rimsiz odam his qildi. Abulqosim hikoyasini davom ettirdi: Bir kun oqshom Chin Kalonda istiqomat qiluvchi musulmon savdogarlar meni yog'ochdan barpo qilingan serhasham uyga olib borishdi. Uy odamlar bilan liq to'la edi. Bu uyni tasvirlab berish mushkul. U bir-birovining ustiga joylashgan yo'laklari yoki ayvonlari bo'lgan bittagina ulkan bo'lma edi. Ayvonda o'tirgan odamlar yeb-ichishar, pastki sahdagilar ham, peshayvonga o'xshash balandroq joyda o'tirganlar ham yeb-ichish bilan mashg'ul edilar. Peshayvondagilar nog'ora va ud chalishar, o'n besh yoki yigirma chog'li odamlar esa ular qizil niqob tutgan edilaribodat qilishar, qo'shiq aytishar va o'zaro suhbat qurishardi. Oyoqlariga kishan solingan bu odamlar uqubat cheksalar-da, zindon ko'rinmas edi: ular ko'zga ko'rinmas otlarda yelib jang qilsalar-da, qo'llarida tutgan shamshirlar qamishdan yasalgan edi: ular jon taslim qilar, so'ng yana oyoqqa turardi.

Aqlan ozgan odamlarning qiliqlari aqli raso odam tasavvurini ham ortda qoldirishga qodir. dedi Farroj.

Ular aqlan ozgan emasdilar.-Abulqosim izohlashga majbur bo'ldi.- Savdogarlardan birining aytishicha, ular allaqanday voqeani tasvirlayotgan edilar.

Hech kim hech narsani tushunmadi, aftidan tushunishga harakat ham qilmadi. Hijolat bo'lgan Abulqosim xotirjam hikoya so'zlashdan dadil mulohazalarga o'tdi. U qo'llarini siltaganicha yana qayta so'zlay ketdi:

Tasavvur etib ko'raylik, hikoya qilib berish o'rniga kimdir bir voqeani namoyish qilayotir. Bu, aytaylik, Efesda uxlab yotganlar voqeasi bo'la qolsin. Biz ular g'orga tomon ketib borayotganini, ibodat qilib bo'lgach, mudroq qo'yniga cho'mishlarini, ko'zlari ochiq holda uxlab yotganlarini, uyqu mobaynida bo'yi va eniga o'sayotganlarini, uch yuz to'qqiz yildan so'ng uyg'ona boshlashlarini, savdogarning qo'lga qadimiy tangani tutqazishlarini, ular qay tariqa jannatda ko'z ochishlarini va ular bilan birga hamroh it ham uyg'onishini o'z ko'zimiz bilan ko'ramiz. Peshayvondagi odamlar o'sha oqshom shunga o'xshash tomosha ko'rsatdilar.

O'sha odamlar gapirisharmidi? so'radi Farroj.

Albatta gapirishardi, -dedi Abulqosim o'zi elas-elas xotirlyotgan va aslida zerikib tomosha qilgan namoyishning maddohiga aylanib. -Ular gapirishar edi, qo'shiq kuylardilar va mulohaza yuritardilar.

Buning uchun,- dedi Farroj,- yigirmata odam shart emasdi. Bittagina masxaraboz har qanday voqeani, hatto eng murakkab voqeani ham so'zlab bera olardi.

Bu fikrni hamma ma'qulladi. Oллоh farishtalarni idora qilish uchun tasarruf etadigan arab tili fazilatlarini madh eta ketdilar. So'ng arablar she'riyati xususida so'z ochildi. Uni ham lozim darajada ko'klarga ko'targach, Abdulmalik hamon cho'ponlar timsoli va badaviylar lug'atini tark etmagan Damashq va kordovalik shoirlarni urfdan qolganlikda aybladi. Qarshisida Gvadalakvivir mavjlanib yotgani holda sahro qo'ynida adashgan quduq suvini madh etish bema'nilikdir, dedi u. U ko'hna tashbehlarini yangilash tarafdori edi Zuhayr taqdirni so'qir tuyaga qiyos qilgan mahalda bu timsol odamlarni hayratga solar edi, ammo besh asrlik hayratlanish mobaynida u eskirib bo'lgan. Ko'p marotaba va ko'pchilik og'zidan eshitilgan bu mulohaza ma'qullandir. Avverroes sukut saqlardi. Va nihoyat, u o'zi bilan so'zlashayotgan kabi tilga kirdi.

Men ham,-dedi Avverroes,-bu qadar so'zamolik bilan bo'lmasa-da, harqalay Abdulmalik bayon etgan fikrni shunga o'xshash dalillar yordamida yoqlagan edim. Iskandariyada so'zlab yuradilarki, gunoh qilib tavba etgan odamgina gunoh qila olmaydi. Bu fikrga qo'shimcha qilamiz: xatolardan holi bo'lish uchun ularning changalida bo'lib ko'rmoq lozim. Zuhayr "Muallaqot" sahifalarida anduh hamda shon-shuhratning sakson yili mobaynida taqdirning so'qir tuya kabi odamga birdan hamla qilib qolishini ko'p marotaba ko'rgani haqida hikoya qiladi. Abdulmalikning fikrlashicha, bu timsol odamlarni hayratga solishga endi qodir emas. Uning fikrini bir necha dalillar bilan inkor etish mumkin bo'lur edi. Birinchisi: bordi-yu she'rning maqsadi hayron qoldirish bo'lsa, uning umri asrlar bilan emas, balki kun va soatlar bilan va, balki, daqiqalar bilan o'lchangan bo'lur edi. Ikkinchisi: mashhur shoir ixtirochi emas, balki kashshofdir. Ibn Sharof Bahriyni sharaflab aytadilarki, yulduzlar tong chog'i xuddi daraxtdan uzilgan yaproq misol birin-ketin to'kilib tushishlarini faqat ugina o'ylab topishi mumkin edi. Agar shoir maddohlari haq bo'lalar, ushbu timsol hech vaqoga arzimaydi. Zotan faqat bir odam o'ylab topishi mumkin bo'lgan timsol hech kimni hayajonga sola olmaydi.

Yer yuziga behisob turfa xil narsalar sochib yuborilgandir va ularning har birini boshqa birov bilan qiyoslash mumkin. Yulduzlarni yaproqlarga qiyoslash ularni baliq va yo qushlarga qiyoslash singari ixtiyoriydir. Va bil'aks, taqdirning qudratli va befahm, beozor va shu bilan birga beshafqat ekaniga biror marta guvoh bo'lmagan kimsa yo'qdir. Zuhayrning she'ri oxir-oqibat barchaga daxl qiluvchi ayni shu fikr haqqi bitilgandir. Undan oshirib aytish mumkin emas. Qolaversa, mening asosiy xulosam shusaroylarni xarobaga aylantirishga qodir vaqt she'riyatni boyitadi. Arabistonda bitilgan bu she'rda o'sha mahalda ikki timsolkeksa tuya bilan taqdir taqqoslangan edi. Oradan besh yuz yil o'tib o'qilgan bu she'r, endi, ustiga ustak, Zuhayrning o'zini ham xotirga keltiradi va o'z anduhlarimizni mana shu marhum arab anduhlari bilan qiyos etishga undaydi. Dastlab bu timsol xususiyatlari ikkita edi. Endi esa to'rtta bo'ldi. Vaqt she'r doirasini kengaytiradi va men shunday misralarni bilamanki, ular musiqa yanglig' hamisha barcha insonlar uchun jaranglayveradi. Xuddi shu kabibir necha yil avval Marokashda ekanligimda qadrdon Kordova visoli qiynoqqa solgan mahal Abdurahmonning Rusafo bog'laridagi Afrika palmasiga qarata aytgan xitobini takrorlash menga taskin berar edi:

B B B O' palma, sen ham

B B B B Musofirmisan bu bog'larda?!..

She'riyatning ajabtovur fazilati! Sharqni qo'msayotgan qirol bitgan so'zlar Afrikaga surgun qilingan kaminaning Ispaniya dardiga malham edi.

So'ngra Avverroes Islomga qadar bo'lgan Johiliya davridayoq cheksiz sahrolar lahasida barcha narsani aytib ulgurgan ko'hna shoirlar haqida so'zladi. Ibn Sharofning xonaki balandparvozligidan tashvishlangan Avverroes dediki, o'tmish shoirlari va Qur'onda butun she'riyat ja'm etilgandir va yangilik olib kirmoqchi bo'lganlarning da'volari esa nodonlik va behuda chiranishdan boshqa narsa emasdir. Hamma uning so'zlarini bajonidil tinglar, zotan, u o'tmishni yoqlayotgan edi.

Avverroes kutubxonaga qaytib kelgan mahal muazzinlar bomdod namoziga chorlayotgan edi. (Bu orada esa xaramdagi qora soch kanizaklar malla sochli kanizakni azoblab ulgurgan, biroq, Avverroes bundan faqat kechga tomon xabar topadi.) U o'sha ikki noma'lum so'zni tushunib yetganday bo'ldi va ravon husnixat bilan yozilgan quyidagi jummalarni qo'lyozmaga qo'shib qo'ydi:

"Arastu madhiyalarni targediya deb, duoiba'dlarni esa komediya deb ataydi. Qur'on sahifalari hamda "Muallaqot" tragediya va komediyalar bilan to'lib-toshgandir".

Uyqusi kelib, bir oz sovuq qotganday bo'ldi. Sallasini yechib, ko'zguga razm soldi. Shu lahzada uning ko'zlari qay bir manzaraga guvoh bo'lganligi menga qorong'u, illo hech bir muarrix uning yuzlarini tasvirlab bergan emas. Menga faqat shu narsa ayonki, u ko'zga ko'rinmas yashin urgan misol birdan g'oyib bo'ldi, u bilan birga uy va favvora, kitob va qo'lyozmalar, oshiq kabutarlar va qorasoch kanizaklar, azoblardan yurak oldirgan mallasoch kanizak, Farroj va Abdulqosim, atirgul butalari va ehtimol, Gvadalakvivir ham ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ushbu hikoyada men bir mag'lubiyat jarayonini tasvirlamoqchi edim. Dastlabki niyatga ko'ra, men Xudo yagona ekanligini dalillar bilan isbotlashga qaror qilgan o'sha kenterberiyalik rohib haqida yozmoqchi bo'lgandim. So'ng esa falsafa toshi ilinjida bo'lgan alkimyogarlarning haqida; keyin burchaklar trisektsiyasi hamda doiralar kvadraturasini kashf etishdek yechib bo'lmas masalaga qo'lganlar haqida hikoya qilishni o'yladim. Ammo keyinroq o'zi emas, balki boshqalar erisha olishi mumkin bo'lgan maqsadni niyat qilgan odam voqeasi jozibadorroq tuyildi. Shunda men Islom doirasi bilan cheklangani bois "tragediya" va "komediya" so'zlarini baribir tushuna olmagan Avverroesni esladim. Mana, ushbu voqeani hikoya qilib tugatdim. Yozish jarayonida men Berton tilga olib o'tgan o'sha Tangrining, buqa o'rniga buyvolni yaratgan Tangrining ko'yiga tushdim. O'z asarim go'yo o'zinni masxara qilayotgandek edi. Teatr haqida hech qanday tushunchaga ega bo'lmagan Avverroesning dramani faraz qilishga urinishi kulgili edi. Renan, Leyn va Asin Palasos yozib qoldirgan uzuq-yuluq parchalardan boshqa manbaga ega bo'lmagan holda mening Avverroesni faraz qilishga urinishim esa bundan-da ayanchliroq. So'nggi sahifani qoralab tugatayotganimda anglab yetdimki, mening ushbu hikoyambuni yozayotgan chog'imdagi qiyofamning in'ikosidir va ayni shu hikoyani yoza olish uchun aynan o'sha odam bo'lishim lozim edi, aynan o'sha odam bo'lishim uchun esa men mana shu hikoyani yozishim kerak edi va shu taqlid cheksizlikka qadar (Men unga ishonmay qo'yganim zahoti Avverroes g'oyib bo'ladi.)

Tarjimondan

XX asr jahon adabiyotida bir mukammal badiiy voqelik barpo etgan argentinalik adib Xorxe Luis Borxesning (1899-1986) adabiy merosi atrofidagi munozaralar hali-hamon tingan emas. Borxes muntazam tarzda murojaat qilgan ramzlar esa, xususan, mana bular: "ko'zgular, kutubxona, adoqsizlik, bog' va tushlar olami. U "Al-Muhtasimga yaqinlashuv" hikoyasida yozadi: "Qodir Xudoning o'zi ham Kimnidir izlashda davom etayotir, ushbu Kimdir esa boshqa bir yuksakroq (yoxud shunchaki zarur va o'ziga monand) Kimnidir izlash bilan mashg'ul va shu tariqa Zamonlar Intihosigab" yoki, to'g'rirog'i Intihosizlikka (cheksizlikka) qadar." "Xaroba doiralari" hikoyasida esa quyidagilarni o'qiyimiz: "Bir kunqushlaridan ayrilgan subhidam chog'i afsungar doira ketidan doira bo'lib ehrom devorlariga olov yaqinlashayotganini ko'rdi. Daryodan najot topmoqchi bo'ldi, biroq o'lim uning ulug' yoshiga toj kiydirish, barcha tashvishlardan xalos etish uchun tashrif buyurganligini anglab, bu fikridan qaytdi. Va u yong'inga peshvoz chiqdi. Biroq olov tillari uning vujudini zabtiga olmadi, bil'aks erkalab yalab-yulqadi, yuvib-taradi kuydirib kul qilmadi. Va yengil tortib, xo'rlik alami bilan dahshat ichra anglab yetdiki, uning o'zi ham kimdir birov o'z tushlarida ko'rayotgan sharpa edi, xolos." Borxes mavjud voqelikning o'zi-da omonat va nomukammal ekanligini, uni boshqa bir "to'g'ri qib" chiqarilgan va barcha unsurlari puxta ishlangan boshqa bir dunyo o'zida mahv eta olishi mumkinligini aytadi: "Tlyon, Ukbar, Orbis Tertius".

Agar adabiyotshunoslik doirasidagi bu mulohazalardan bir qadar chetlashadigan bo'lsak, Borxesning har bir hikoyasini har qanday boshqa ko'lamdor asarlarga zamin bo'la oladigan mukammal formulalar tarzida tushunish mumkin. Borxes shu tariqa allaqanday boshqa ulkan loyihalarning mohiyatlarini havola etadi. Uning o'zini esa bir me'morga mengzash mumkindir, balki. Uning adabiy olami Piza minorasi kabi og'ib borayotgan emas, balki uning tadqiqotchilari hali e'tibor qilmagan ma'nolarni kashf qilish ilinjidagi har bir o'quvchi sayr qila oladigan kafolatli qo'rg'on kabidir. Chindan ham Borxesni o'qishga tadorigi bor va oqibatda uni anglash ostonasida turgan har bir mutolaago'y bu qo'rg'on aro o'zining alohida Borxesini izlab topishi ehtimoli yo'q emas.

Ammo Borxes bugungi o'zbek kitobxonini uchun naqadar dolzarb? Agar savol shu qadar qo'yiladigan bo'lsa, aslida hech bir narsa dolzarb emas. Borxes kabi adiblar mahsullari sukunatni ma'qul ko'radi. Bu asarlar ma'lum bir davrda urfga kirib, fursat o'tgach urfdan chiqadigan muvaqqatlikdan begona. Shu ma'noda havola etilayotgan ushbu dastlabki "o'zbekcha Borxes" o'tgan asrning 90-yillarida tayyorlangan edi, ammo ma'lum sabablar yig'indisi ayni natijani hozirga qadar olib keldi.

Tarjima jarayoni haqida esa shularni aytish mumkin. Agar urfga kirgan ibora qo'llanadigan bo'lsa, Borxes asarlarida, har bir iborada ichki ohang yashiringan. Yashirin musiqa. Shu narsaga putur yetkazmasdan o'zbek tiliga o'girishga intilindi.

Umid shuki, hozir bo'lmasa so'ngroq, o'zbek adabiyotida ham jahon adabiyoti aslida yaxlit bir adabiyot ekanini, mahdudlikda qolish xatarli ekanini anglash taraqqiy etsa va bu anglash hosilalari boshqa barcha yo'nalishlarni-da harakatga keltirsa.

Adibning o'zbek tilidagi hikoyalari mutolaasiga shaylangan o'quvchiga esa tilak oshub "halolingiz bo'lsin!"

Izohlar:

Uerta (isp. Huerta) "bog", tomorqa.

"Poetika" va "Ritorika" Yunon faylasufi Arastu asarlari.

Iskandar Afrodisiy (II-III asrlar) Yunon faylasufi, Arastu asarlari sharhlovchisi.

Ibn Said al-Mag'ribiy o'rta asrlar musulmon Ispaniyasining taniqli olimlaridan, sayyoh.

Efes hozirgi Turkiyaning Izmir shahri yaqinidagi qadimiy Yunon shahri. Bu shahar xarobalari hamon saqlanib qolgan.

Ibn Zuhayr (530-627) Arab shoiri.

Jozef Ernest Renan (1823-1892) Frantsuz yozuvchisi, tarixchi va tilshunosi.

Eduard Leyn (1801-1876) Ingliz tarixchisi.

This is not registered version of TotalDocConverter.
As the page is registered by the company TotalDocConverter.